

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI**

**“MOLIYA”
KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 339.13:336.7:336.17

BOBOQULOV SHAXZOD SUYUNBOY O‘G‘LI

**MOLIYA BOZRINI RIVOJLANISHIDA QIMMATLI QOG‘OZLAR
BOZORINING RO‘LI**

**70410401– Davlat moliyasi va xalqaro moliya mutaxassisligi bo‘yicha
magistrlik akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A S I Y A

Ilmiy rahbar:


I.f.d.prof. A. Toshqulov

TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Moliya" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

13 - sonli boyonnoma "25" aprel 2023 y.


Kafedra mudiri: i.f.d.prof. Xudoyqulov X.



Ilmiy raxbar: i.f.d.prof. A. Toshqulov.



Tinglovchi: Boboqulov Shaxzod Suyunboy o'g'li.



Dissertatsiya "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakultetida 2023 yil
"19" may

No MBF-01/8 raqami bilan ro'yxatga olinadi.

Fakultet dekani _____ i.f.d. prof. A. Burxanov

ANNOTASIYA

Mamlakatimiz moliya bozorini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish bugungi kundagi dolzarb mavzulardan biridir. Shu bois tadqiqot davomida mavzu doirasida atroflicha ish olib bordik. Jumladan mavzuga oid boshqa tadqiqot ishlari, maxalliy va xorijiy olimlar qarashlari, ilmiy maqolalari hamda mavzuga oid maxalliy me'yoriy xujjatlarni o'rganib chiqib, adabiyotlar sharhi tayyorladik. Ilmiy ishining amaliy ahamiyatini oshirish uchun, mamlakatimiz fond birjasi xususan "TOSHKENT" RFB da qimmatli qog'ozlar va ularning aylanish holati va ular bilan ishlash qay darajada amalga oshirilayotganligini statistik ma'lumotlar asosida ekonometrika tahlil usullari yordamida o'rgandik. Undan tashqari horijiy davlatlar tajribasi bilan ham tanishib chiqdik. O'rganilgan va taxlil qilingan ma'lumotlar asosida moliya bozorini rivojlanishi bo'yicha ilmiy va amaliy asoslangan hulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Kalit so'zlar: *moliya bozori, qimmatli qog'ozlar, aksiya, obligatsiya, opsiya, aksiyadorlik jamiyati, birja, sug'urta bozori, bozor infratuzilmasi.*

ANNOTATION

The development of the securities market is one of the current topics in the development of the financial market of our country. Therefore, during the research, we carried out extensive work within the scope of the topic. We prepared a review of literature after studying other research works on the topic, views of local and foreign scientists, scientific articles and local normative documents on the topic. In order to increase the practical significance of the scientific work, we studied the stock exchange of our country, especially "TASHKENT" RFB, and the state of their circulation and the extent to which work with them is carried out using econometric analysis methods based on statistical data. In addition, we got acquainted with the experience of foreign countries. Based on the studied and analyzed data, we developed scientific and practical conclusions, suggestions and recommendations on the development of the financial market.

Key words: *financial market, securities, stock, bond, option, joint-stock company, stock exchange, insurance market, market infrastructure.*

MUNDARIJA

Annotasiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	6
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	8
I BOB. KIRISH.....	9
1.1. Dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi..	10
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalar.....	12
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
1.4. Tadqiqot ob'ekti va predmeti.....	14
1.5. Dissertasiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	16
2.1. Kirish	16
2.2. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi	16
2.3. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi	27
2.4. Xulosa	34
III BOB. METODOLOGIYA.....	35
3.1. Tadqiqot dizayni	35
3.2. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni	35
3.3. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar	35
3.4. Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar	36
3.5. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi	36
3.6. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar	37
IV BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	38
4.1. Respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlarining moliya bozorining38 rivojlanishiga tasirining tahlili	
4.2. Toshkent Respublika fond birjasida qimmatli qog'ozlar savdosi42 dinamikasi tahlili	
4.3. Tahlillardan olingan natijalar sharhi	47
V BOB. XULOSA.....	48
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi	48
5.2. Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari	49
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar	51
Foydalanilgan adabiyotlar.....	52

I BOB. KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda moliya bozori va uning tarkibiy qismi hisoblangan qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish, jahon moliya bozori orqali kapital jalb qilish borasida bir qator samarali ishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda mazkur sohani yanada takomillashtirish borasida muhim strategiyalar ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev mamlakatimizda kapital bozorini yanada rivojlantirish, qimmatli qog'ozlar chiqarilishini ko'paytirish, jismoniy va yuridik shaxslarning fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida 2021 yil 13 aprel kuni "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmonini imzolashlari, shuningdek, muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2017 yil 7 fevral kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmonida ham moliya bozorini yanada takomillashtirish va himoya qilish hamda milliy korxonalarimizning aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko'rish chora-tadbirlarini ham o'z ichiga olganini yuqorida ta'kidlab o'tilgan islohotlar natijasi sifatida keltirib o'tishimiz mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda va biznes amaliyotida moliya bozori tushunchasi odatda pul, kredit, valyuta bozorlari va kapital bozorini o'z ichiga olgan holda keng talqin qilinadi. Bu o'rnatilgan amaliyot bilan bog'liq. Moliyani pul va umuman qiymat toifasiga o'xshash toifa sifatida ko'rib chiqish kerak, chunki har qanday iqtisodiy resurslar pul yoki tegishli qimmatli qog'ozlar, mulk huquqi bo'lgan boshqa hujjatlar bilan vositachilik qilishi mumkin. Mamlakatni sekyuritizatsiya qilish siyosatini yuritish (to'g'ridan-to'g'ri bank davlat byudjetini davlat qarz majburiyatlarini chiqarish bilan ularni keyinchalik tijorat banki va boshqa investor tomonidan sotish bilan almashtirish) qimmatli qog'ozlar bozorini yanada rivojlantirish uchun ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratadi. Bozorni sanoat, transport, qurilish va qishloq xo'jaligi korxonalari ulushlari bilan to'ldirish, investitsiya sifati bo'yicha eng yaxshi qimmatli qog'ozlarni tanlash, moddiy ishlab chiqarish